KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 51 (581) 2025-YIL, 4-NOYABR

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI

O'zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

"KORRUPSIYAGA QARSHI BIRGALIKDA KURASHAMIZ!"

Andijon shahridagi 24-umumta'lim maktabi bilan "Adolat mezoni" gazetasi hamkorligida "Korrupsiyasiz jamiyat – taraqqiyot kafolati" mavzusida bo'lib o'tgan davra suhbatida o'qituvchilar ana shunday dedi.







Davra suhbatida maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Malohatxon Mahmudova, "Adolat mezoni" gazetasi muharriri Maxpura Artiqova va maktabning o'qituvchilari ishtirok etdi.

Huquqiy savodxonligini yanada oshirish maqsadida tashkil etilgan suhbat davomida, korrupsiya – har qanday jamiyat taraqqiyotiga raxna soluvchi illat ekani ta'kidlanib, mamlakatimizda korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurashning huquqiy asoslari va ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar xususida so'z yuritildi.

- Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazib, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

- Hozirda, korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro miqyosdagi kabi respublikamizda ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Biz pedagoglar ham bunga o'z hissamizni qo'shish uchun yoshlarga mazkur illatning ayanchli oqibatlari haqida tushuntirish bilan birga qonunlarda mazkur jinoyatga qanday jazo choralari qo'llanishi to'g'risida ma'lumotlar berib o'tyapmiz, - dedi maktabning huquq fani o'qituvchisi Gulnoza Sidiqova.

Dilbar ABDUMAJIDOVA,
"Adolat mezoni" muxbiri.

MAMLAKAT RIVOJIGA TAHDID!

Gazetamiz tahririyati tomonidan Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan "Korrupsiyasiz jamiyat – taraqqiyot kafolati" nomli loyihasi doirasida belgilangan "Korrupsiyasiz jamiyat – taraqqiyot kafolati" sahifasi chop etilgan va "Korrupsiyasiz jamiyat – taraqqiyot kafolati" mavzusidagi bukletlar ta'lim muassasalariga yetkazib berilmoqda.

Quyida yetkazib berilgan gazetamizni joylarda qanday foydalanmoqda va gazetxonlarni chop etilgan maqolalar fikri bitilgan xabarnomalar kelib tushmoqda.

- Men Andijon tumanidagi 1-son politexnikumida huquqshunoslik fanidan dars beraman. Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati" sahifasidagi maqolalarni diqqat bilan o'qidim. Unda yoshlarni korrupsiya atalmish jirkanch illat haqidagi fikrlari tahsinga sazovor.

Loyiha doirasida yoshlarni faol ishtirok etayotgani meni quvontirdi. Ularni korrupsiyaga qarshi kurashishda qaysi jihatlarga e'tibor berish kerakligi borasidagi o'z fikrlarini bildirishi quvonarlidir.

Darhaqiqat, taraqqiyotga g'ov bo'ladigan illatlardan biri – korrupsiya. Bugungi kunda ko'pchilik korrupsiya deganda faqatgina ish bitirish uchun pul oldi-berdini nazarda tutadi. Buning sababi shuki, korrupsiyaning bu ko'rinishi jamiyatning quyi qatlamida keng tarqalgan. Aslida korrupsiya maishiy (fuqarolar bilan mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilarining kundalik ish faoliyatidagi manfaatlar to'qnashuvi), ishbilarmonlik (tadbirkorlik sub'yektlari bilan hokimiyat vakillarining munosabatlarida uchraydigan) va yuqori hokimiyat organlari korrupsiyasi (siyosiy hukmron doiralar hamda odil sudlov tizimi faoliyatida ko'zga tashlanadigan) kabi bir qancha turlarga bo'linadi.

Yon-atrofimizga bir qaraylik. Ta'lim, tibbiyot va bank sektori sohalarida poraxo'rlik illati keng uchraydi. Buning sababi nima? Ta'lim va tibbiyotda bu illatning avj olishi sabablaridan biri va asosiysi ishsizlik, ish o'rinlarining yetarli emasligi, aholining kichik bo'lsa-da, muqim maosh va tayinli ish o'rniga ega bo'lish istagidir. Bog'bonlik bo'ladimi, farroshlikmi yo o't yoquvchilik, nima bo'lsa ham tayinli ishga kirish istagi kishilarni yillab yig'gan-terganlarini qo'shqo'llab birovga topshirishga undaydi. Ayniqsa, o'rta maxsus ma'lumotli kishilar orasida qanday yo'l bilan bo'lsa-da, ishga joylashish istagi kuchli va bu yuqoridagi sohalarda korrupsiyani rivojlantirmoqda. Tibbiyotda esa inson salomatligi omili borki, u olovni yanada alangalatadi.

Qolaversa, huquqiy savodxonligimiz bilan ham maqtana olmaymiz.



Negaki, qonunan o'zimizniki bo'lgan narsani huquqlarimizni bilmasligimiz sababli pul yoki tanish-bilishchilik evaziga qo'lga kiritishga harakat qilamiz.

Muxtasar aytganda, korrupsiya — taraqqiyot kushandasi, xavfsizlikka tahdid tug'diruvchi xavfli jinoyat. Bu illatga qarshi kurashish tegishli organlarninggina emas, barchaning ishi bo'lishi zarur. Shundagina biz ushbu xavfni bartaraf etgan bo'lamiz.

Qudratbek QODIROV,
Andijon tumanidagi 1-son politexnikumi huquqshunoslik fani o'qituvchisi.

BEZORILIK JINOYATI TUSHUNCHASI, UNING SALBIY OQIBATLARI

Bezorilik jamoat tartibiga qarshi qaratilgan jinoyat bo'lib, jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslikda ifodalangan harakatlar shaxsni urish-do'pposlash, unga yengil tan jarohati yetkazish yoki o'zganing mulkiga ancha miqdorda shikast yetkazish yoxud uni ancha miqdorda nobud qilish bilan bog'liq holda sodir etiladi.

Jamiyatda yurish-turish qoidalarini mensimaslik deganda, qonunlarga, axloq-odob normalariga, jamiyatda mavjud bo'lgan urf-odat va an'analarga hurmatsizlik tushuniladi.

Qonun mazmuniga ko'ra, aybdor o'zining harakatlari bilan jamoat tartibini buzayotganligini anglashi lozim. Bunda mazkur xatti-harakatlar bilan jamoat tartibini buzish o'rtasida sababiy bog'lanish bo'lishi shart. Sababiy bog'lanish aniqlanmagan holda qilmish shaxsga yoki mulkka qarshi qaratilgan jinoyat deb baholanishi lozim.

Bezorilik jinoyati bilan ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanmish mayda bezorilikni bir-biridan farqlash zarur. Mayda bezorilik tushunchasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 183-moddasida berilgan bo'lib, uning mazmuniga ko'ra, ushbu huquqbuzarlik jamoat joylarida uyatli so'zlar aytish yoki shunday so'zlar bilan so'kinish, behayo qiliqlar ko'rsatish yoxud odamlarga nisbatan haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibi va fuqarolar osoyishtaligini buzish kabi jamiyatda yurish-turish qoidalarini ochiqdan ochiq mensimaslik harakatlarida ifodalanadi.

(Davomi 3-betda).

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI
O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

XALQARO TASHKILOTLAR KORRUPSIYAGA QARSHI QANDAY KURASHADI?

Bilamizki, dunyoda ko‘plab xalqaro tashkilotlar bor. Ulardan ba’zilari davlatlar o‘rtasidagi tinchlikni ta’minlasa, ba’zilari inson huquqlarini yoki bolalar huquqlarini himoya qilishadi. Lekin korrupsiyaga ham qarshi kurashuvchi xalqaro tashkilotlar borligidan xabaringiz bormidi?



Ulardan biri Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshidagi United Nations Convention against Corruption (UNCAC) ya’ni, Korrupsiyaga qarshi Birlashgan Millatlar Konvensiyasi. Bu tashkilot 2003-yil Meksika, Merida shahrida tashkil topgan. 2005-yil 14-dekabrdan kuchga kirgan. Dunyoning deyarli barcha mamlakatlari 187 ta davlat a’zodir. Asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Korrupsiyani oldini olish; davlat boshqaruvida shaffoflik, halollik, hisobdorlikni oshirish, davlat xizmatchilari uchun axloq kodekslarini joriy etish.

2. Jinoyatni e’lon qilish va jazolash; pora olish, pora berish, mansabni suiiste’mol qilish jinoyat sanaladi.

3. Xalqaro hamkorlik; korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatchilarni topish, hujjatlar almashish va qo‘shma tergovlar.

Bu dunyo miqyosidagi yagona majburiy xalqaro hujjat bo‘lib, korrupsiyaga qarshi kurashish uchun universal standartlarni belgilaydi.

Yana bir tashkilot Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OECD) 1997-yil Parijda tashkil topgan bo‘lib, hozirda 46 ta mamlakat a’zo. Asosiy maqsadi kompaniyalar va shaxslarning xorijiy davlat mansabdorlariga pora berishini jinoyat deb belgilash, xalqaro biznesdagi tilini ta’minlashdan iborat.

Bu tashkilot konvensiyasi tufayli ko‘plab davlatlar jumladan, AQSH, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya o‘z qonunlarini xalqaro standartlarga moslashtirgan.

Yevropa Kengashi - Council of Europe (COE) 1999-yilda tashkil topgan bo‘lsada, 2002-yilda kuchga kirgan. 50 dan ortiq davlat a’zo, O‘zbekiston kuzatuvchi davlat sifatida qatnashadi.

Afrika Ittifoqi - African Union 2003-yil Maputo Mozambikda qabul qilingan. 44 ta Afrika davlatlari a’zo.

Asosiy maqsadlari - davlat resurslarining talon-toroj qilinishiga qarshi chora-tadbirlar, davlat rahbarlari va amaldorlar daromadlarini oshkora e’lon qilish, sud tizimi mustaqilligini ta’minlash kabilardan iborat.

Korrupsiya nafaqat bir davlatning balki butun dunyoning muammosidir, shu sababdan ham unga qarshi hamma kurashmoqda.

Xadichaxon JALOLIDDINOVA,
Andijon Davlat Chet tillari instituti
2 - bosqich talabasi.



YUKSAK MA’NAVIYATLI INSONNI HAR QANDAY ILLAT DOMIGA TORTA OLMAYDI

Korrupsiya kecha yoki bugun paydo bo‘lgan emas. Bu azaldan jamiyat qoniga singib borgan bir illat. Ehtimol uni parazit deb ham atash mumkindir?! Nega? Chunki mana shu illat odamlar orasida davlatlar paydo bo‘lmasdan avval mavjud edi va hali-hanuz yanada gurkuramoqda. Aytish joizki, qachon insonlar boshiga kulfat tushganda, o‘z mansablari yo‘lida, o‘z manfaatlariga to‘g‘ri keladigan har qanday chora-tadbirlarda va shu kabi yo‘llarda ularning ongiga yorug‘lik tezligi singari mana shunday halokatli yo‘llar keladi.

Korrupsiyaning kelib chiqishida jamiyatni asosiy elga qo‘ysak, uning ob’ektini adolatni unutgan hamda befarq jamiyat a’zolarini olamiz. Chunki, bu kabi insonlarda ma’naviy yemirilish kuzatiladi va jamiyatda adolatsizlik, ishonchsizlik kabi muhitning kuchayishiga olib keladi. Halol mehnat qilayotganlarga zarar yetkazadi, inson huquqlari poymol etiladi. Natijada hayot sifati pasayadi va jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘ladi. Axloq jihatidan to‘g‘ri kelmaydigan bu urinishlar davlat va jamiyat o‘rtasida tuzilgan shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qonunlariga zid hisoblanib ularga o‘rnatilgan tartib-qoidalari bo‘yicha choralar ko‘riladi.

Korrupsiya konstitutsiyaga zid bo‘lganidan tashqari, diniy qadriyatlarga ham qarshi hisoblanadi va ikki tomondan ham qat’iy qoralanadi. Shu bilan birga dinimizda ham adolatli bo‘lishga, boshqalarning huquqlarini himoya qilishga chaqiriladi.

Jamiyatni tubdan o‘z iskanjasiga o‘rab olgan bu vosita yuqorida aytib o‘tilgandek uning mavjudligi qadim tarixga borib taqaladi. Tarixga bir nazar tashlasak, Mesopotamiya, Rim va boshqa davlatlarda davlat lavozimlariga tayinlash jarayoni ko‘pincha pora va shaxsiy manfaatlari asosida amalga oshirilgan. Masalan, yuqori lavozimli shaxslar o‘z pozitsiyasini saqlash yoki kengaytirish uchun pora berish yoki olish holatlari kuzatilgan.

Xulosa qilib aytganda, kuzatilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, avvalo insonlarning ma’naviyatini oziqlantirish hamda o‘stirish zarur. Sababi ma’naviyati keng, yuksak bo‘lgan insonlarni hech qanday illat yoki poraxo‘rlik singari vositalar o‘z domiga torta olmaydi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov «Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch» deya ta’kidlagan.

Barno MUXITDINOVA.

TANISH-BILISHCHILIK HAM KORRUPSIYAMI?

«KORRUPSIYA», «PORAXO‘RLIK», «TANISH-BILISHCHILIK» - BU SO‘ZLARNI KUNDALIK HAYOTDA HAM KO‘P UCHRATAMIZ. KO‘PCHILIK BU ILLATLARGA ODDIY HOL SIFATIDA QARAYDI. ANIQROQ QILIB AYTGANDA, ULAR JAMIYATNING BIR QISMI BO‘LIB QOLGAN. BUNGA ASOSIY SABAB, INSONLARNING ONGIDA BU TUSHUNCHALAR TO‘G‘RI SHAKLLANMAGAN. SHU SABABLI, ULARGA QARSHI KURASHISH ZARURATI YETARLICHA HIS QILINMAYDI. SABABI, BA’ZI ODAMLAR KORRUPSIYANI FAQAT KATTA MIQDORDAGI PORA OLISH YOKI DAVLAT IDORALARIDAGI JIDDIY JINOYAT BILAN BOG‘LIQ TUSHUNCHA SIFATIDA QABUL QILADI. AMMO, KORRUPSIYA BUNDAN HAM KENGROQ, YA’NI KICHIK PORAXO‘RLIK, TANISH-BILISHCHILIK KABI E’TIBORGA OLINMAYDIGAN HARAKATLARNI HAM O‘Z ICHIGA OLADI.

Korrupsiyani kundalik hayotimizda ham uchratib turamiz deyishim bejizga emas, sababi xizmat ko‘rsatish jarayonlarida, tibbiyot yoki ta’lim tizimida ham korrupsiyaga duch kelamiz. Bunga hayotiy misol keltirib o‘tishim mumkin. Yaqindagina xolam o‘g‘lini ixtisoslashtirilgan maktabga kirgizish uchun $200 to‘ladi. Bilamizki, ixtisoslashtirilgan maktablar bilimli o‘quvchilarni saralab olish uchun imtihon o‘tkazadi va eng yuqori ball to‘plagan o‘quvchilarni qabul qiladi



(qilishlari kerak!). Lekin aslida u o‘quvchilarning deyarli yarmi tanish-bilishchilik orqali yoki pora bilan kirgan. Shu o‘rinda yana bir narsani ta’kidlab o‘tishim lozim, ular sababli haqiqiy bilimli, iqtidorli o‘quvchilar imkoniyatidan ayriladi. Sababi ularning o‘rniga kelishib qo‘yilgan o‘quvchilar maktabga qabul qilinadi. Menimcha, har bir ota-ona farzandini yaxshi joyda, bilimli bolalar orasida o‘qishini xohlaydi. Shu sababli, ular talab qilingan summani ikkilanmay berishga majbur bo‘ladi. Ammo, ta’lim sohasiga ham korrupsiyaning aralashishi achinarli holat. Yosh avlodga bilim berayotgan o‘qituvchilarning bunday ishlarga aralashishi undan-da achinarli holatdir.

Hozirda ko‘plab televideniye, davlat idoralari yoki yaqin atrofimizdagilar ham korrupsiyaga chek qo‘yish kerakligini ta’kidlaydi. Ammo korrupsiyaga chek qo‘yishni, avvalo, o‘zimizdan boshlashimiz, hayotda halol va odil bo‘lib yashashimiz lozim. Har bir inson kichik narsalarda ham halollik bilan ish tutsa, adolatli bo‘lsa, nafaqat o‘z vijdoni oldida, balki jamiyat oldida ham to‘g‘ri inson bo‘lib qoladi. Shu sababli, o‘zimizni o‘zgartirish - bu faqat o‘z foydamiz uchun emas, balki jamiyatimizni yaxshilashga xizmat qiladi. Eng muhimi, o‘zimiz halol bo‘lsak, boshqalardan halollik kutishimiz mumkin. Zero, halol yo‘l bilan amalga oshirilgan har qanday ishning oxiri, muvaffaqiyat bilan yakunladi.

Mohidiloy
ABDURAHMONOVA,
Andijon davlat universiteti
filologiya fakulteti
1-bosqich talabasi.

“SUDYALAR FAOLIYATI” SAHIFASI



Gazetamizning “Sudyalar faoliyati” sahifasida Jinoyatlar ishlar bo‘yicha Buloqboshi tuman sudi raisi Nodirbek Mirzajonov va tergov sudyasi Muxayyoxon Turdiyevaning bugungi kunda fuqarolar jamiyatda yurish-turish qoidalariga amal qilmasa qanday oqibatlarga olib kelishi, yurtimizda xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo‘ravonlikdan ishonchli himoya qilishning huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirishga qanday e’tibor qaratilayotganligi haqida so‘z yuritadilar.

BEZORILIK JINOYATI TUSHUNCHASI, UNING SALBIY OQIBATLARI

(Davomi. Boshi 1-betda).

Mazkur huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarga

— bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha muddatga ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi.

Agarda mayda bezorilik harakatlari davom etib, aybdorning keyingi harakatlari shaxsni urish-do‘pposlash, unga yengil tan jarohati yetkazish yoki mulkka ancha miqdorda shikast yetkazish yoxud nobud qilish bilan sodir etilgan bo‘lsa, shaxs ma’muriy javobgarlikka tortilmasdan, faqat jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Urish-do‘pposlash deganda, aybdor tomonidan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan buzib, shaxsning badaniga shikast yetkazmagan holda bir necha zarba berish tushuniladi.

Sovuq qurol yoki shaxsning sog‘lig‘iga amalda shikast yetkazishi mumkin bo‘lgan boshqa narsalarni qo‘llash deganda, aybdorning ular vositasida bezorilik harakatlari davomida jabrlanuvchiga nisbatan tan jarohati yetkazgan yoki yetkazishga harakat qilgan hollar tushunilishi lozim.

Shaxsning sog‘lig‘iga amalda shikast yetkazishi mumkin bo‘lgan boshqa narsalar turkumiga aybdor tomonidan o‘sha maqsadlarda bezorilik harakatlari davomida foydalanilgan har qanday narsalar kiradi.

Bezorilik harakatlari o‘taketgan behayolik bilan sodir etilgan deb topish masalasini hal etish chog‘ida sud ishning muayyan holatlari majmuidan kelib chiqishi hamda sodir etilgan jinoyatning xususiyati, vaqti, joyi va shart-sharoitlarini inobatga olishi lozim.

Xo‘rlash deganda, shaxsga jismoniy jihatdan azob berish yoki uni qiynash tushuniladi. Qonun mazmuniga ko‘ra, yosh bola deganda 14 yoshga to‘lmagan shaxs, qariya deganda 55 yoshdan oshgan ayol va 60 yoshdan oshgan erkak, nogiron deganda esa, belgilangan tartibda I, II, III guruh nogironi yoki bolalikdan nogiron sifatida tan olingan shaxs tushuniladi.

Ojizlik, jabrlanuvchining jismoniy yoki ruhiy nosog‘lomligi tufayli jinoyatchiga qarshilik ko‘rsata olmasligida, o‘z huquqlari, manfaatlari va qadr-qimmatini himoya eta olmasligida, shuningdek kutilayotgan xavfdan saqlana olmasligida namoyon bo‘ladi.

Jinoiy harakatni ushbu band bilan kvalifikatsiya qilish uchun aybdor shaxs jabrlanuvchining yosh bolaligi, qariyaligi, nogironligi yoki ojiz ahvolda ekanligini anglab yetgan bo‘lishi talab etiladi. Agar bezorilik harakatlarini to‘xtatish chorasini ko‘rayotgan shaxsga qarshilik ko‘rsatish paytida ishlatilgan zo‘rlik natijasida aybdor tomonidan yana boshqa og‘ir jinoyat sodir etilgan bo‘lsa, bu hol bezorilik jinoyati tarkibi bilan qamrab olinmaydi. Mazkur turdagi jinoyatni sodir etgan shaxslar Jinoyat Kodeksining 277-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Unga ko‘ra bezorilik, ya’ni jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do‘pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o‘zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha zarar yetkazish bilan bog‘liq holda sodir etilsa,

— bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Bezorilik:

a) badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazib:

b) bir guruh shaxslar tomonidan;

v) sovuq qurol yoki kishining sog‘lig‘i uchun amalda shikast yetkazishi mumkin bo‘lgan narsalarni (qurol sifatida) namoyish qilib, ularni qo‘llash bilan qo‘rqitib yoxud qo‘llab;

g) o‘z mazmuniga ko‘ra umum e’tirof etgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi o‘taketgan behayolik bilan;

d) yosh bola, qariya, nogironligi bo‘lgan shaxs yoki ojiz ahvoldagi shaxslarni xo‘rlab;

ye) ko‘p miqdorda zarar yetkazib, birovning mulkini nobud qilib yoki unga shikast yetkazib sodir etilgan bo‘lsa,

— uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bezorilik:

a) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;

b) o‘qotar qurolni namoyish qilib, uni qo‘llash bilan qo‘rqitib yoki qo‘llab;

v) ommaviy tadbirlar o‘tkazilayotgan vaqtda;

g) jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat vakili yoki jamoatchilik vakiliga yoxud bezorilik harakatlarining oldini olish chorasini ko‘rgan boshqa fuqarolarga qarshilik ko‘rsatib sodir etilgan bo‘lsa, —

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Nodirbek MIRZAJONOV,
jinoyat ishlari bo‘yicha Buloqboshi tuman sudining raisi.

Huquqni qo‘llovchilar tomonidan qayd etilgan qonunni to‘g‘ri qo‘llash, bu masalada barqaror sud va tergov amaliyotini shakllantirish maqsadida amaldagi qonunchilik hujjatlariga kiritilgan oilaviy, maishiy, jismoniy, iqtisodiy, ruhiy kabi tazyiq va zo‘ravonliklarga berilgan tushunchalarning sharhlari, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi munosabati bilan aybdorning harakatlarini ushbu modda bilan kvalifikatsiya qilishga oid o‘ziga xos huquqbuzarlik hamda jinoyat ishlari bo‘yicha ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qaror qabul qildi.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-829-son Qonuni bilan amaldagi qonun hujjatlariga oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik, jismoniy zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik, iqtisodiy zo‘ravonlik, shahvoniy shilqimlik, haqoratomuz shilqimlik kabi tushunchalar kiritildi.

Shu kabi qoidabuzarliklar uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik belgilanishi ushbu masalaga doir moddiy hamda protsessual qonun normalarini to‘g‘ri tatbiq etilishiga erishish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2000-yil 15-sentyabrdagi 21-sonli, “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli, “Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2007-yil 27-iyundagi 6-sonli, “Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to‘g‘risida”gi 2008-yil 5-maydagi 13-sonli, “Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirishga doir ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2010-yil 29-oktyabrdagi 13-sonli, “Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari ozod qilish va jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2016-yil 27-dekabrdagi 28-sonli va “Sudlar tomonidan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishni tartibga soluvchi qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida” 2018-yil 30-noyabrdagi 35-sonli qarorlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi.

Mazkur o‘zgartishlar albatta, eng avvalo fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun xizmat qiladi.

Muxayyoxon TURDIYEVA,
Buloqboshi tuman sudining tergov sudyasi.

XOTIN-QIZLAR VA BOLALARGA QO‘L KO‘TARMANG:

JINOIY JAZO OG‘IRLASHDI

So‘nggi yillarda “Yangi O‘zbekiston”ni barpo etish yo‘lida mamlakatimizda xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo‘ravonlikdan ishonchli himoya qilishning institutsional hamda huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirishga, bolalar orasida nazoratsizlikning va ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga, shuningdek nogironligi bo‘lgan bolalarni hamda ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa xotin-qizlarning jamiyatdagi roli, o‘rni va nufuzini oshirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish va ularni umume’tirof etilgan jahon andozalari talablariga keltirish yuzasidan qilinayotgan sa’y harakatlar alohida e’tiborga molik.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-829-son Qonuni ushbu islohotlarda muhim o‘rin tutadi.

Qabul qilingan Qonun bilan xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish bilan bog‘liq masalalarda yuzaga kelayotgan bir qator muammolarni bartaraf etish va bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlab qo‘yishga qaratilgan bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

xususiyatlari, zo‘ravonlik bilan bog‘liq ma’muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlar uchun jazo tayinlash va jazodan ozod qilish qoidalariga kiritilgan o‘zgartirishlardan kelib chiqib e’tiborga molik holatlari yuzasidan sudlar uchun ushbu masalalarda tegishli tushuntirishlar berilishini taqozo etadi.

Shunga ko‘ra, yangi qabul qilingan va davlat siyosatining muhim yo‘nalishini tartibga soluvchi mazkur qonun talablariga muvofiqlashtirish, odil sudlovni amalga oshirishda moddiy va protsessual huquq normalarini to‘g‘ri tatbiq etilishini ta’minlash, sudlarda yagona amaliyotni shakllantirish maqsadida hamda «Sudlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 22-moddasiga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi natijasida O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ma’muriy

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH - DOLZARB VAZIFA

Andijon viloyati IIB PPX va JTSB karantin tadbirlarini ta’minlash guruhi hamda qator mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda viloyatning shahar-tumanlarida faoliyat ko‘rsatayotgan oziq-ovqat bozorlari va ularning shoxobchalarida jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligi hamda veterinariya-sanitariya qoidalari normalariga amal qilinishini ta’minlash maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Andijon viloyati hududlarida muntazam ravishda odamlar va hayvonlarning sog‘lig‘i uchun xavf tug‘diradigan kasalliklar tarqalishini oldini olish, epizootik va epidemik vaziyatni barqarorlashtirish borasida, Andijon viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Jamoat tartibini saqlash boshqarmasi Karantin tadbirlarini ta’minlash guruhi, Shahrixon tumani veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi hamda boshqa mutasaddi idora xodimlari bilan hamkorlikda keng qamrovli profilaktik tadbirlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Tadbir davomida Shahrixon tumani Qalacha MFYda epizootik vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida chorva hayvonlarini yuqumli kasalliklarga qarshi emlash va yuqumli kasalliklarni barvaqt oldini olish choralari ko‘rilmoqda.

Xususan Asaka tumanida faoliyat yuritayotgan «Asaka» (oziq-ovqat) MCHJ dehqon bozorida ham aholi dasturxoniga sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berilishini ta’minlash, oziq-ovqat xavfsizligini nazorat qilish, epizootik va epidemik vaziyatning barqarorligini ta’minlash asosiy e’tiborini go‘sht va go‘sht, sut va sut mahsulotlariga qaratish maqsadida keng qamrovli profilaktik tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Sardorbek SHERMATOV,
Andijon viloyati IIB JXX JTSB Karantin tadbirlarini ta’minlash guruhi hodimi, safdor.





МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Хонобод шаҳри, Фитрат МФЙ, Шифобахш кўчаси, 132-уй, 42-хонадонда яшаб, 2009 йил 5 январь куни вафот этган марҳум **БАЙМАТОВ БАХРАМЖАН ТАЖИМАТОВИЧ,**

Хонобод шаҳридаги уйда яшаб, 2010 йил 9 январь куни вафот этган марҳум **ХАЙДАРОВА КЕНЖАХОН**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Андижон туманида яшаб, 2024 йил 23 феварль куни вафот этган **ОХУНОВА АЧАХОН ХОДЖИМАТОВНА**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани, Дархон МФЙ, Истеъдод кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Н.О.Расулов нотариал идорасига,

Андижон туманидаги уйда яшаб, 2025 йил 13 февраль куни вафот этган **МАТИСАЕВ УРИНБОЙ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани, Нўхатак МФЙ, Матбуотчи кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.И.Абдураҳмонов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2015 йил 1 март куни вафот этган марҳум **TURGUNBAYEV ERGASH,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 1993 йил 27 декабрь куни вафот этган марҳум **УМАРОВ АРАББОЙ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Иттифоқ МФЙ, Ҳамнафас кўчасидаги уйда яшаб, 2010 йил 9 март куни вафот этган марҳум **ХОЖИМАТОВА КИМЁХОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.К. Ботиров нотариал идорасига,

Избоскан туманидаги уйда яшаб, 2024 йил 1 июнь куни вафот этган марҳум **ARTIQOV JASURBEK NUMONJONOVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчаси, 103-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Д.С.Хатамова нотариал идорасига,

Пахтаобод туманида яшаб, 2022 йил 22 июль куни вафот этган марҳум **ТЕМИРОВА САЛОМАТХОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy.
Telegram: (+998 99) 995-19-66
E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahrirriyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi.
«ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi.
Chop etishga topshirish vaqti 3.11.2025-yil, soat 11.00.
Chop etishga topshirildi 3.11.2025-yil, soat 14.00.
Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy.
Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma № . 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li